

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan 2024-yil davomida
monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
H I S O B O T**

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish” to‘g‘risidagi 53-sonli buyrug‘ining 5-ilovasiga asosan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “YO‘L XARITASI” tasdiqlangan. (1-ilova va havola: https://api-portal.gov.uz/uploads/b78fedc0-76dd-2538-3274-bcf99c112643_media .pdf)
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi (mas’ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 5-apreldagi 53-sonli buyrug‘ining 3-bandiga asosan Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining vazifalari va funksiyalarini Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yuklatilgan. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisi lavozim yo‘riqnomasining 7.12 bandida: Vazirlikda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha “monopoliyaga qarshi kurashish komplaens” tizimini joriy etish hamda umumiy komplaens-nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarda qatnashishi belgilab qo‘yilgan. (2-ilova)

3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	Raqobat cheklanishiga hamda monopoliya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari ro'yxati: Facebook ijtimoiy tarmog'idagi aloqa vositasi (https://www.facebook.com/www.mehnat.uz/) Telegram messenjeridagi aloqa vositasi (https://t.me/mehnatvazirligi) Instagram aloqa vositasi (https://www.instagram.com/bandlik_vazirligi/) Ishonch telefonlari (+99871 200-06-00 +99871-203-01-21) (3-ilova va havola: https://api-portal.gov.uz/uploads/32686845-e8ec-fe23-04a1-f3ff8caf8a45_media .pdf)
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Namangan tumani kasb-hunarga o'qitish markazi buyurtmachiligida "Zargarlik jihozlarini sotib olish" yuzasidan eng yaxshi takliflar tanlanishi haqida "e-tender.uzex.uz" axborot tizimiga 2024-yil 23-may kuni boshlang'ich narxi 269,3 mln. so'mlik e'lon joylashtirilgan. Ushbu tanlovda g'oliblikni qo'lg'a kiritgan "Vodiy nefti gazovik energiya" MChJ hamda zaxiradagi g'olib "Safo" MChJ rahbar va ta'sischilari Axmadjanov Baxtiyor Komiljonovich va Najmitdinov Qobil Baxritdinovichlar o'zaro affillangan shaxsligi aniqlangan. Mazkur holatda Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunning raqobat va xolislik prinsiplarini buzilganligi hisobga olinib, ta'minotchi korxona bilan shartnoma tuzilishi oldi olingan. (4-ilova)

5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	Andijon viloyati Bo'ston tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida o'tkazilgan xizmat tekshiruvida Bo'ston tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan 2023 yil mobaynida kasanachilik yo'nalishida ajratilgan mablag'lar asosida tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish maqsadida "Imkon sari 9090" MChJ bilan 4 ta holatda jami 404,3 mln.so'mlik to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilgan. O'rganish davomida "Imkon sari 9090" MChJning ta'sischisi (100% ulushdor) sifatida bo'lim bosh hisobchisi Abduxoliqov Shavkat Abdujalilovich ko'rsatilgan bo'lib, jamiyat direktori esa bosh hisobchining yaqin qarindoshi (akasi) Abduxalikov Shuxrat Abdujalilovich qayd etilganligi ma'lum bo'ldi. Natijada, mazkur 4 ta shartnomalarda manfaatlar to'qnashuvi holati yuzaga kelgan. Aniqlangan xato-kamchiliklarga huquqiy baho berish bo'yicha hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan (5-ilova)
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	Vazirlik tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi "Past", "O'rtacha" va "Yuqori" darajalarga bo'lingan. (6-ilova)

7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Vazirlik tizimida o'tkazilgan o'rganishlarda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqaruvchi holatlar yuzasidan belgilangan tartibda rahbariyatga taklif kiritildi. Jumladan, Namangan tumani kasb-hunarga o'qitish markazi buyurtmachiligida o'tkazilgan eng yaxshi takliflarni tanlanishida davlat xaridlari to'g'risidagi qonunning raqobat va xolislik prinsiplarini buzilganligi aniqlangan, ta'minotchi korxona bilan shartnoma tuzilishi oldi olingan. Shuningdek, Andijon viloyati Bo'ston tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan kasanachilik yo'nalishida ajratilgan mablag'lar asosida tuzilgan 4 ta shartnomalarda manfaatlar to'qnashuvi holati yuzaga kelgan. Yuqorida qayd etilgan holatlarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, Raqobat to'g'risidagi nizom qabul qilingan hamda amaliyotga tatbiq etilgan. (8-ilova va havola https://api-portal.gov.uz/uploads/6887c6df-c2cf-e135-c253-2d711fdcea5c_media .pdf)
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarini Davlat xaridlari hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari muntazam ravishda oshirib borilmoqda (9 ilova, havola: https://t.me/NamanganBandlik/9594).

10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Tizim xodimlarini raqobat to'g'risidagi normativ hujjatlardan xabardorlik darajasini aniqlash maqsadida 2024-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan tayyorlangan 50 ta savoldan iborat test savollari tanlama asosida elektron dastur orqali xodimlarga taqdim etildi. Ushbu test sinovlarida tizimdan mehnat faoliyatini olib boruvchi 25 nafar xodim ishtirok etdi. Test natijasiga ko'ra, raqobat va xarid yo'nalishida 2025-yilda alohida o'quv dasturi tasdiqlagan holda Xodimlar malakasini oshirish markazida bosqichma bosqich xodimlarni o'qitish rejalashtirildi (10 va 10A ilova)
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlarining havolasi: https://api-portal.gov.uz/uploads/c031097f-3b23-3596-a450-b1726b707240_media .pdf
<i>Izoh: Hisobot taqdim etilishida har bir vazifa bo'yicha amalga oshirilgan ishlar aniq raqamlar va tasdiqlangan isbotlovchi hujjatlar bilan taqdim etilishi lozim.</i>		